

MUROJAAT VA IJRO



MUROJAAT VA IJRO

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 maydagi 252-sonli qaroriga ko'ra 13 turdagi subsidiyalar hokim yordamchilari tavsiyalariga asosan berilishi belgilangan.

Ushbu subsidiyalar "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" da ro'yhatda turuvchi fuqarolarning murojaatlari bo'yicha ularning o'zini-o'zi band qilishi va doimiy daromadga ega bo'lishlari maqsadida berilishi nazarda tutilgan.

Xususan, kuni kecha Termiz shahridagi "Jo'yjangan", "Tinchlik", "Mehrobod", "Amu sohili" va "Gulira'no" mahallalarida yashovchi 6 nafar "Ayollar daftari" dagi vaqtincha ishsiz fuqarolarga hokim yordamchilari tavsiyasi bilan subsidiya asosida "Tikuv mashina", "Overlog", "Inkubator", "Noutbuk" va o't o'rish uskunasi berildi.

Image not found or type unknown




Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

